

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARINI AHLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI

*Raxmataliyeva Gulmira O'tkirjon qizi*

*Toshkent shahridagi Bucheon universiteti magistranti*

*gulmiraabdurahmonova2@gmail.com*

*Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug ' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog 'liq.*

*Shavkat Mirziyoyev*

**Annotation:** Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, iymoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar hal etadi. Uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini sifatida Maktabgacha ta'lim o'sib kelayotgan kelajak yosh avlodga ta'lim tarbiya berish jarayonida ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishida axloqiy tarbiya berishning ahamiyati katta o'rinni egallaydi.

**Kalit so`zlar:** tarbiyachi, bola, tarbiya, shaxs, jamiyat, axloq, ma'naviyat, milliy qadriyat

**Аннотация:** Чтобы укрепить основы нашей независимости, сделать Узбекистан великой страной, очень важно рационально наладить просветительскую деятельность, регулярно знакомить граждан с достижениями современной науки и техники. Судьбу этого развития будут решать морально зрелые кадры, обладающие современными знаниями и сложными технологиями, обладающие полной верой, сильной волей, глубоко мыслящие и обладающие высоким потенциалом. Являясь первым звеном непрерывного образования, дошкольное образование играет важную роль в процессе воспитания подрастающего будущего молодого поколения, формирования из него всесторонне развитой личности.

**Ключевые слова:** педагог, ребенок, образование, человек, общество, мораль, духовность, национальная ценность.

**Abstract:** In order to strengthen the foundations of our independence and make Uzbekistan a great country, it is very important to rationally organize educational

activities and regularly introduce citizens to the achievements of modern science and technology. The fate of this development will be decided by morally mature cadres, possessing modern knowledge and sophisticated technologies, having full faith, strong will, deep thinking and high potential. Being the first link of lifelong education, preschool education plays an important role in the process of educating the growing future young generation, forming them into a comprehensively developed personality.

**Key words:** teacher, child, education, person, society, morality, spirituality, national value.

### KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimiz maktabagacha ta`lim tizimiga katta e`tibor berilayotgan bir vaqtda nafaqat bolalarning rivojlanishiga balki tarbiyachilarning rivojlanishigam ham e`tibor berilmoqda. O`zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta`lim va tarbiya to‘g‘risida”gi<sup>1</sup> Qonuni, O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, maktabgacha ta`lim tizimiga innovatsiyalarni, shuningdek, eng ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Axloq (arabcha “xulq-atvor”) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Axloq – shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. U shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg‘unlashtirish uchun ham zarur.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Axloqiy me’yorlar har bir inson va jamiyat uyg‘unlikda mavjud bo‘la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko‘p asrlik tajribasi natijasidir.

<sup>1</sup> 8 may PQ4312 2019 yil MTT 2030 yil rivojlantirish konepsiyasini

Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. Ayni o'rinda har bir yoshning aqliy va jismoniy kamolotga yetishida ilm-fan va tarbiyaning ahamiyatini ko'rsatib berish bilan birga jamiyat taraqqiyotining ta'minlanishida asosiy rolni o'ynovchi ilm ahli, olimu fazillarga nisbatan hurmat ko'rsatish, ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e'tiborni qaratadi. Fitratning "Rahbari najot" asari to'la ravishda ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobo oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, bu masalalar hozirgi davrda ham katta ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga: 1. Jismoniy tarbiya — salomatlik, 2. Aqliy tarbiya — sog'lom fikrlilik, 3. Axloqiy tarbiya — axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi. Asarning "Bola tarbiyasi" masalalari bobida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi. Ko'rinish turibdiki, olimlarning ham axborot texnologiyaga bo'lgan fikrlari va qarashlari turlicha. Ammo, hozirgi zamon talabi bo'lgan axborot texnologiyasi har doim zaruriy ahamiyatda qolmoqda. Chunki, har bir soha raqamlashitirayotgan bir vaqtida kompyuterni, turli xil dasturlarni bilmaslik, bu ishning orqaga tortishi va uning samarali bitmasligini ta'minlaydi.

Hamza Hakimzoda ta'lim-tarbiya haqida bildirgan fikrlarida bolalarning sog'lom bo'lishiga ham e'tibor beradi. U ayniqsa, ta'lim-tarbiyada ota-onalarning muhim o'rinn tutishini ta'kidlaydi, bolaning go'zal axloqli bo'lib kamol topishi uchun oila muhitida tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi zarurligini aytadi. Shoirning fikricha bola — odobning boshini ota-onadan oladi, o'rganadi, bunga jiddiy e'tibor berilmasa tarbiya juda qiyin kechadi va yomon oqibatlarga olib borishi aniq ekanligini aniq-ravshan bayon etadi. Bilamizki, hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilariga qo'yiladigan talablar yuqori,bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda tarbiyaning roli katta. Bolalarning ijtimoiylashuvida axloqiy tarbiyaning,ijtimoiy kompetensiyalarinin shakllanishida pedagog-tarbiyachining mahorati muhim o'rinn egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasida oilaning o'rni ham beqiyos sanaladi. Shu sababdan ham bo'lajak tarbiyachilarga maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda innovatsion-interfaol metodlardan foydalansh,turli

xil diafilm va dasturlardan hamda ularni yaratishga bo`lgan qiziqishlarni oshirib borish ahamiyatli hisoblanadi.

## NATIJALAR

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar axloqiy kategoriya deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylilik, rostgo`ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o`zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi.

Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o`zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu axloqiy ideal deb ataladi.

Axloqning asosiy tamoyillari – birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umumiylilikning yuqori ko`rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo`ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o`z-o`zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo`lish). Axloqiy ongning o`ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha`n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o`tish mumkin.<sup>2</sup> Yuqorida aytilganlarni e`tiborga olib, axloqning, jamiyat a`zolarining faoliyatiga yo`nalganligi va uni boshqarilishi ma`nosida, faoliyatli tavsifini ko`rsatib o`tish to`g`ri bo`ladi.

Axloq me`yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi ideallarni esa, shaxs o`zida tarkib toptirishni xohlagan me`yor va sifatlar tarzida ajratib ko`rsatish mumkin.

Axloqiy tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O`zaro to`g`ri munosabat uslubi:
  - a) jamoaning katta a`zolari o`rtasida;
  - b) pedagogik va ota-onalar jamoasi o`rtasida;
  - v) kattalar va bolalar o`rtasidagi munosabat, kattalarning bolalarga munosabati.

Kattalar(pedagoglar)ning bolalarga nisbatan insonparvarlik tamoyilida, o`zaro hamkorlik, o`zaro yordam, hurmat munosabatida bo`lishi eng muhim shart-sharoit hisoblanadi.

2. MTTda o`rnatilgan qat`iy kun tartibi.

3. MTTda o`z tengdoshlariga va boshqa kishilarga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni yuzaga keltiruvchi muhit yaratish.

4. Bolalarni axloq me`yorlari va qoidalariga o`rgatish hamda shular asosida bola shaxsida ijobiy axloqiy his-tuyg`ularni tarbiyalash.

5. Jamoada hamma bolalar uchun teng sharoit yaratish va bolalar jamoasi o`rtasida to`g`ri munosabat o`rnatish.

6. Kun davomida bolalarning xilma-xil qiziqarli faoliyatlarini tashkil etish.

<sup>2</sup> Sh.A.Sodiqova Maktabgacha Pedagogika

7. Bolalarni ijobjiy axloqiy xulqini mashq qildiradigan shart-sharoit tug‘dirish.
8. MTT bilan oilaning hamkorligi va boshqalar.

### MUHOKAMA

Komenskiy o‘z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko’rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug‘ilganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to‘rt mактабни o‘qib tugatishi, har birida 6 yil o‘qishi kerak, deb hisoblaydi.

Pestalotsining elementar ta’lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o‘qitishni o‘z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotstsi bir-biriga bog’lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uyg‘un bo‘lib kamol topishini ta’minlash mumkin, dedi. Bolalarni xalqning boy milliy-tarixiy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash kelajak jamiyatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bolalar turli madaniyatlar, texnologiyalar va global ta’sirlarga duchor bo‘lgan bugungi dunyoda qadriyatlar va axloqiy munosabatlarni etkazish muhim ahamiyatga ega.

### XULOSA

Bolalarning axloqiy tarbiyasi ularning rivojlanishining asosiy tarkibiy qismidir. Axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash: Axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish dasturlari bolalarga nima to‘g’ri va noto‘g’ri ekanligini tushunishga yordam beradi, shuningdek, o‘zlarining axloqiy tamoyillarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunday dasturlar bolalarga muhim ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirishga, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga va kattalikka tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi, bu erda tushunish, hamdardlik va to‘g’ri qaror qabul qilish muhimdir.

Axloqiy tarbiyada innovatsiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini bolalarning zamonaviy ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi, axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish yanada qiziqarli, tushunarli va samarali bo‘ladi. Ular bolalarga zamonaviy jamiyatda axloqiy qarorlar qabul qilish va axloqiy jihatdan mas’uliyatli hayot kechirish ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Asrlar davomida har bir madaniyat o‘z milliy merosini to‘pladi, u o‘zi bilan qadriyatlarni, an‘analar va tarixiy saboqlarni olib yuradi. O‘zbekiston sharoitida Buyuk Ipak yo‘lining ta’siri, me’morchilik durdonalari va betakror merosi bilan sug‘orilgan boy madaniy-tarixiy zamin yosh avlodda ma’naviy-axloqiy tamoyillarni shakllantirishga asos bo‘lmoqda.

## REFERENCES

- “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi Takomillashtirilgan 2022 yil 4 fevral O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son MTT tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi
- Xudoyqulov X.J. Milliy g’urur - ma’naviy komillik mezoni. -T.: “Dizayn-Press”, 2011.
- 19.Xudoyqulov X.J. Kasb ta’limda ekologik muammoning zamonaviy talqini. “Kasb-Hunar ta’limi” jurnali
- Maktabgacha Pedagogika 2019 Sh.A.Sadikova
- Professional’naya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002